



**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY
MARKAZI**



**JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA
METODIKASI**



Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **D.R.Norkulov** – p,f,b,f,d(PhD) v.b. dotsent

Taqrizchilar: **Sh.Xankeldiyev** - pedagogika fanlari doktori,
professor

*Ishchi o'quv dasturi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.
(2025-yil "27" dekabrda 5-sonli bayonnoma)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM	
METODLARI	19
III NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI	36
IVAMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI	53
V.GLOSSARIY	68
VIADABIYOTLAR RO'YXATI	72

I. ISHCHI DASTUR

ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni

2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog

kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi. Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati, sportda ilmiy tadqiqot asoslari, gimnastika sport turlarini o'qitish uslubiyati, yengil atletika sport turlarini o'qitish uslubiyati, sport o'yinlarini o'qitish uslubiyati bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ishchi o'quv dasturida jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotining umumiy tavsifi, xususiyatlari, vosita va uslublari, shakllari, tamoyillari, jismoniy sifatlar, jismoniy tarbiya darsida yuklamalarni me'yorlash, jismoniy tarbiya darsida o'qitishning zamonaviy metodikalarini joriy etish, pedagog texnologiyalarni qo'llash bo'yicha kasbiy mahoratini oshirishiga alohida ahamiyat berilgan.

Ishchi o'quv dasturida qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilari sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, jismoniy tarbiya va jismoniy salomatlik bo'yicha Xitoy tajribasi, yuklamaning koordinatsion murakkabligi, pulsometriya o'tkazish uslubiyoti bo'yicha ham bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Modulning maqsadi va vazifalari

O‘quv modulining maqsadi – tinglovchilarni jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti bo‘yicha: bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy tarbiyaning funksiyalari, jismoniy tarbiya darsi asosiy vositalari, jismoniy tarbiya dars kompetensiyasi va pedagogik tahlil (xronometraj, pulsometriya) usullari, jismoniy tarbiyani o‘rgatish bosqichlari hamda kasbiy pedagogik mahoratiga yo‘naltirishga xos bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

O‘quv modulining vazifalari:

“Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat” yo‘nalishida pedagogkadrning jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish;

- jismoniy sifatlarni rivojlantirish, salomatlikni saqlash va mustahkamlash shuningdek, organizmni chiniqtirish, fiziologik funksiyalarni garmonik rivojlantirish va gavda tuzilishini shakllantirish;

- jismoniy tarbiya darsida yuklama shiddatini nazorat qilish;

- jismoniy tarbiya vositalaridan jismoniy tarbiya darsida samarali foydalanish;

- jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash kasbiy mahoratini oshirish.

Modul bo‘yicha qo‘yiladigan talablar

“Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiyaning tushunchalarini;

- jismoniy tarbiya darsidagi yuklamalarni;

- jismoniy tarbiya va sportdagi innovatsiyalar va ularni mashg‘ulotlarda qo‘llashning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini;

- mashg‘ulotlar jarayonida o‘rgatish bosqichlari, uslublari, vositalari va tamoyillarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish, rejalashtirish;

- pulsometriya o‘tkazish;
- mashg‘ulot yuklama shiddatini nazorat qilish;
- jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya darslari sifatini baholash ko‘rsatkichlarini pedagogiktahlil qilish metodlaridan foydalanish **ko‘nikmalarini** egallashi zarur.

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazishda pedagog texnologiyalarni qo‘llash;
- sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash **malakalarini** egallashi lozim.

Tinglovchi:

- darsning umumiy va motor (harakatga soluvchi) zichligini kuzatish va tahlil etish;
- jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo‘nalishida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
- jismoniy tarbiya darslarida farsiyat texnologiyalaridan foydalanish;
- jismoniy tarbiya nazariyasi bo‘yicha video darslarni tayyorlash;
- jismoniy tarbiya va jismoniy salomatlik bo‘yicha Xitoy tajribasini amaliyotda qo‘llash **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti” kursi nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

nazariy mashg‘ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot, video dars va elektron-didaktik materiallar;

amaliy mashg‘ulotlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning so‘rovnoma, matematik-statistik va instrumental

uslublari;

innovatsion pedagogik texnologiyalari (aqliy hujum, swot tahlil, Venn diagrammasi, va boshq) hamda boshqa ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish”, “Gimnastika va yengil atletika sport turlarini o'qitish metodikasi”, “Sport o'yinlarini o'qitish metodikasi” va “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar innovatsion texnologiyalar yordamida jismoniy tarbiya darsi samaradorligini oshirish tizimining zaruriy bilimlarni egallash bo'yicha kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi soatlari			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil tayyorgarlik
		Jumladan			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	
1.	Jismoniy madaniyat nazariyasining yetakchi tushunchalari va jismoniy madaniyatning ijtimoiy mohiyati	2	2		
2.	Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.	2	2		
3.	Jismoniy tarbiya vositalari, uslubiyati, tamoyillari.	2	2		
4.	Jismoniy yuklamalar. Jismoniy tarbiya darsida yuklama. Yuklamalarning tarkibiy qismlari.	6	2	4	
5.	Harakatlarga o'rgatish asoslari. Mashg'ulot yuklama shiddatini nazorat qilish. Oddiy texnik harakatlar.	4	2	2	
6.	Jismoniy mashqlarning ta'sirini belgilovchi omillar. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakli.	4		4	
7.	Jismoniy mashqlar klassifikatsiyasi	2		2	
	Jami	22	10	12	

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-mavzu. Jismoniy madaniyat nazariyasining yetakchi tushunchalari va jismoniy madaniyatning ijtimoiy mohiyati (2 soat)

Nazariy ta'lim mazmuni

- **Reja:**
 1. Jismoniy madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati.
 2. Jismoniy madaniyatning shaxs rivojlanishiga ta'siri.
 3. Jismoniy madaniyatni jamiyatdagi ijtimoiy hodisa sifatida tushunish.
- Ushbu mavzu tinglovchilarga jismoniy madaniyatning asosiy tushunchalari va uning jamiyatdagi ahamiyati haqida nazariy bilimlar beradi. Mavzu shaxs va jamiyatning sog'lom hayot tarzini shakllantirishdagi rolga alohida e'tibor qaratadi.

2. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi (2 soat)

Nazariy ta'lim mazmuni

- **Reja:**
 1. Jismoniy madaniyat nazariyasining tabiiy fanlar bilan bog'liqligi.
 2. Jismoniy madaniyat va pedagogika o'rtasidagi integratsiya.
 3. Psixologiya va jismoniy madaniyatning o'zaro ta'siri.
- **Annotatsiya:**

Mavzu jismoniy madaniyat fanining boshqa ilmiy yo'nalishlar bilan bog'liqligini tahlil qiladi. Bu tinglovchilarni ko'p tarmoqli yondashuvni tushunishga o'rgatadi.

3. Jismoniy tarbiya vositalari, uslubiyati, tamoyillari (2 soat)

Nazariy ta'lim mazmuni

- **Reja:**
 1. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari.
 2. Mashg'ulot uslubiyatining nazariy asoslari.
 3. Jismoniy tarbiya tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati.

- **Annotatsiya:**

Mavzu jismoniy tarbiya jarayonidagi vositalar, uslublar va tamoyillar haqida bilimlar beradi. Bu bilimlar jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Jismoniy yuklamalar. Jismoniy tarbiya darsida yuklama. Yuklamalarning tarkibiy qismlari (2 soat)

Nazariy ta'lim mazmuni

- **Reja:**

1. Jismoniy yuklamaning nazariy asoslari.
2. Jismoniy tarbiya darsida yuklama rejasi va taqsimoti.
3. Yuklamalarning turlari va ularning tarkibiy qismlari.

- **Annotatsiya:**

Mavzu jismoniy yuklamalar va ularning nazariy asoslarini o'rgatadi. Yuklamalarni to'g'ri taqsimlashning amaliy ahamiyati ochib beriladi.

5. Harakatlarga o'rgatish asoslari. Mashg'ulot yuklama shiddatini nazorat qilish. Oddiy texnik harakatlar (2 soat)

Nazariy ta'lim mazmuni

- **Reja:**

1. Harakatlarga o'rgatish jarayonining psixologik va pedagogik asoslari.
2. Mashg'ulot yuklamasi shiddatini boshqarish va nazorat qilish prinsiplari.
3. Oddiy texnik harakatlarning o'rganilishi va ularning rivojlantirishdagi roli.

- **Annotatsiya:**

Ushbu mavzuda harakatlarga o'rgatishning nazariy asoslari va jarayonlari, mashg'ulot yuklamasini boshqarish va shiddatini nazorat qilish usullari haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, oddiy texnik harakatlarning jismoniy tarbiya jarayonidagi ahamiyati va ularni o'rgatishning usullari muhokama qilinadi. Tinglovchilar harakatlarga o'rgatishning ilmiy asoslarini va yuklama shiddatini optimallashtirish bo'yicha nazariy bilimlarni egallaydilar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-2 амалий машғулот. Jismoniy yuklamalar. Jismoniy tarbiya darsida yuklama. Yuklamalarning tarkibiy qismlari (4 soat)

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

- **Reja:**

1. Jismoniy yuklamalarni aniqlash va o‘lchash texnikalarini amaliy qo‘llash.
2. Mashg‘ulot yuklamalarining tarkibiy qismlarini aniqlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulot.
3. Jismoniy yuklamalarni individual imkoniyatlarga moslashtirish.

- **Annotatsiya:**

Ushbu amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar jismoniy yuklamalarni o‘lchash, tahlil qilish va turli jismoniy holatlarda moslashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Mashg‘ulot davomida yuklamalarni shaxsiylashtirish bo‘yicha amaliy ishlar bajariladi.

3-амалий машғулот. Harakatlarga o‘rgatish asoslari. Mashg‘ulot yuklama shiddatini nazorat qilish. Oddiy texnik harakatlar (2 soat)

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

- **Reja:**

1. Oddiy texnik harakatlarni o‘rgatish metodikasini qo‘llash.
2. Mashg‘ulot yuklamasi shiddatini amaliy nazorat qilish usullarini qo‘llash.
3. Harakatlarni o‘rgatishda zamonaviy o‘quv-uslubiy yondashuvlarni qo‘llash.

- **Annotatsiya:**

Ushbu amaliy mashg‘ulotlar harakatlarni o‘rgatish va yuklama shiddatini nazorat qilish texnikalarini amalda qo‘llashga qaratilgan. Tinglovchilar oddiy texnik harakatlarni o‘rgatishda foydalaniladigan usullarni sinab ko‘radilar va ularning shiddatini moslashtirish bo‘yicha mashq qilishadi.

4-5 amaliy mashg‘ulot. Jismoniy mashqlarning ta‘sirini belgilovchi omillar. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakli (4 soat)

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

- **Reja:**

1. Jismoniy mashqlarni bajarishda ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni amaliy tahlil qilish.
2. Mashg‘ulot shakllarini turli yosh guruhlariga moslashtirish.
3. Jismoniy mashqlarni sog‘lomlashtiruvchi ta’sirini baholash bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlari.

- **Annotatsiya:**

Mazkur amaliy mashg‘ulotlar jismoniy mashqlarni sog‘lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi ta’sirlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tinglovchilar mashg‘ulot shakllarini boshqarish va ularni turli sharoitlarda qo‘llashni o‘rganadilar.

6-amaliy mashg‘ulot. Jismoniy mashqlar klassifikatsiyasi (2 soat)

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

- **Reja:**

1. Jismoniy mashqlarni ularning klassifikatsiyasiga ko‘ra tanlash va ajratish.
2. Turli guruhlariga mos mashqlarni ishlab chiqish va ularni tahlil qilish.
3. Mashqlarni kombinatsiyalash va ularning umumiy rivojlantiruvchi ta’sirini o‘rganish.

- **Annotatsiya:**

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar jismoniy mashqlarni klassifikatsiya qilish va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Mashg‘ulot davomida har bir mashqning funksional xususiyatlari tahlil qilinadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: “O'zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston”. – 2017.– 102b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi -T.: “O'zbekiston”, 2017.48 b.

5. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qathiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild – T. : O'zbekiston, 2017. - 592 b. (. 'df 170Mb)

6. Mirziyoev SH.M.«Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir» 2-jild -T. : O'zbekiston, 2019, 592 b.

7. Mirziyoev SH.M. «Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayooti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi» 3-jild Toshkent : O'zbekiston, 2019 .- 400 b

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2020 yil 6 noyabr PF-6108-son Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2020 yil 29 oktyabr PF-6097-son Farmoni

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son Farmoni

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019 yil 8 oktabr PF- 5847 Farmoni

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi" 2019 yil 17 yanvar, PF-5635-son Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevral Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 20 apreldagi 2909-son Qarori.
16. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son
17. Vazirlar Mahkamasining 797-son "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 23 sentyabrdagi Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Kadirova M.A., Pulatov F.A., Ummatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan vatexnologiya" nashriyoti, 2018. – 480 b.
2. Miradilov B.M., Karimov B.Z., Umbetova M.A. Sport pedagogik mahoratini oshirish (basketbol): O'quv qo'llanma. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. – 268 b.
3. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati [Matn]: darslik / A.A. Pulatov. – T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. – 448 b.
4. Pulatov A.A., Qdirova M.A. Sport pedagogik mahoratni oshirish (voleybol): O'quv qo'llanma. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2018. – 251 b
5. Pulatov A.A., Ummatov A.A. Sport va harakatli o'yinlar (voleybol) [Matn]: darslik / A.A. Pulatov, A.A. Ummatov – T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. – 224 b.
6. Pulatov A.A., Ganiyeva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubiyati: Darslik. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. – 351 b.

7. Sport va harakatli o'yinlar (gandbol): Darslik / Sh.F. To'laganov, M.M. Raxmanova., R.R. Kariyeva. – T.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – 172 b.
8. To'laganov Sh.F., Raxmanova M.M. Gandbol nazariyasi va uslubi [Matn]: o'quv qo'llanma / Sh.F. To'laganov, M.M. Raxmanova. – T.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – 172 b.
9. Ашуркова С.Ф. Теория и методика волейбола: Учебник для высших учебных заведений. – Т.: “Sano-standart” nashriyoti, 2019. – 535 с.

IV. Internet resurslar

- 1 <http://www.photonics.com>
- 2 www.optics.arizona.edu › Research › Specialties
- 3 www.manchester.ac.uk.
- 4 www.photonics.com/
- 5 www.photonics21.org/
- 6 www.phus.soton.ac.uk/module/PHUS1004
- 7 photonics.cusat.edu/
8. www.britannica.com/science/nanoparticle

**II. MODULNI O'QITISHDA
FOYDALANILADIGAN
INTERFAOL TA'LIM
METODLARI**

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Interfaol so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, «inter» - o‘zaro va «act» - harakat qilmoq ma’nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya’ni o‘zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi. Bunday o‘zaro harakat turlariga “o‘quvchi – o‘qituvchi” va “o‘quvchi-o‘quvchi”ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo‘lib, sportchilar bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Interfaol o‘qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo‘lib, interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchi o‘qitishning ob’ektidan o‘zaro hamkorlikning sub’ektiga aylanishi, o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

O‘qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o‘yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko‘rib chiqiladi.

Interfaol o‘qitish o‘quvchilardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta’lim maqsadlarining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta’limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida xizmat qiladi:

- o‘qituvchining jadal faoliyati – o‘quv faoliyatining asosiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lib, u mazkur harakatning sub’ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi;
- o‘quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub’ekti – o‘quvchi hisoblanadi;
- muvaffaqiyatli o‘quv faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi, uning natijasi sportchilarning fikrlash usullarini o‘rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat;

- o‘quv faoliyatning asosiy ko‘rsatkichi o‘quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta’lim jarayonining asosiy sub’ekti bo‘lgan o‘quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o‘qitish taktikasi muhim o‘rin tutadi;
- o‘quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni o‘quvchidan o‘zining shaxsiy bilish mahorati va ko‘nikmalarini o‘zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

O‘quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi. Biroq, bunda o‘qituvchining ma’lum darajada quyidagi omillarga ega bo‘lishi talab qilinadi :


Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar

Shu bilan birga interfaol TTni qo‘llash samaradorligi quyidagi odatda interfaol TTga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: *individual, juftlik, guruh, jamoa bilan ishlash*

Interfaol TTni qo‘llash jarayonida o‘quvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;
- o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish

Interfaol ta’lim muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interfaol ta’limga xos asosiy belgilar sanaladi



Interfaol ta'limning asosiy belgilari

Izoh: Refleksiya (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): kishining o‘z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib etishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash), o‘z-o‘zini tahlil qilishi.

Bugungi kunda ilg‘or tajribalar asosida interfaol ta’limning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma’lum :

Interfaol ta'limning asosiy shakllari

Mashg'ulotlarda intrefaol o'qitish metodlaridan foydalanish yo'llari.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength) – kuchli tomonlari

W – (weakness) – zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunitu) – imkoniyatlari

T – (tnreat) – to'siqlar

Namuna: O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchli va kuchsiz tomonlari, ichki imkoniyatlari hamda o'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi tashqi xavflarni ushbu jadvalga tushiring.

S	O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchli tomonlari	Axborotlarni samarali o'zlashtirish
W	O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Axborotlarni qabul qilishni faqat bir tomonlama bo'lishi auditoriyada pedagogik muloqotning sustlashuvi
O	O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Auditoriyani jalb etish, vaqtdan yutish, samarali o'zlashtirish, tezkor qabul qilish, ijodiy tasavvurni shakllantirish
T	To'siqlar (tashqi)	Texnikavashaxs omilining qarama-qarshiligi.

«FSMU» metodi.

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi ;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
 - Φ – fikringizni bayon eting.
 - C – fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.
 - M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.
 - U – fikringizni umumlashtiring.
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy

mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Pedagogika ijtimoiy fan. Ijtimoiy fanlar tobora muhim ijtimoiy-o‘zgartiruvchi kuch bo‘lib qolmoqda. Faqat tabiiy-texnik fanlarga bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanib boradi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Taqdimot:

F- bu asosli fikr emas.

C – pedagogika fani tavsiyalari insonning mehnat faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu bilan uning umumiy va kasbiy tayyorgarligi, ijodiy imkoniyatlari rivojlanadi. Mazkur ko'rsatgichlar moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi.

M – o'zluksiz ta'limning imkoniyatlari.

U- pedagogika ijtimoiy fan sanalsada, uning qonuniyatlari jamiyatning rivojlanishida metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Bu esa fanni o'rganishga nisbatan innovatsion yondoshuvni shakllantiradi.

«Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli harakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda sportchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. SHundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna: “Pedagogning shaxsiy axborot maydonini loyihalash” modulidan.

“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna: “O'zbekiston Respublikasining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar” mavzusida assesment namunasi.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

Simptom	Amaliy ko‘nikma
Elektron raqamli imzo...	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi huquqiy hujjatlardan 3 tasini misol keltiring?

“Tushunchalar tahlili” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod o‘quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- sportchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- sportchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Ta’limdagi innovatsiyalar” mavzusidagi kirish ma’ruzasi uchun.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Ta’lim mazmuni		Bilim, ko‘nikma, malakalartizimi, yig‘indisi
Ta’lim sifati		Ta’lim mazmunining shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlariga

		muttanosibligi
Kvalimetriya		Sifat o'lchovi
Deontologiya		Kasbiy etika
Andragogika		Kattalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi soha
Kompetentlik		Faoliyat talablariga yaroqlilik, layoqatlilik
Moderator		Yangilik yaratuvchi, tashabbuskor shaxs

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.

Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

“Charxpalak” texnologiyasi.

Texnologiyaning maqsadi: mazkur texnologiya ta'lim oluvchilarda muayyan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan kasbiy axborotlarni mustahkamlash, analiz-sintez qilish, takrorlash, baholash va mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan mavzuga mos ravishda uy vazifalarini takrorlashda, baholashda va nazorat ishlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi va ularga aniq mavzu bo'yicha tayyorlangan tarqatma materiallar tarqatiladi;
- berilgan harakat hususiyatlari ichidan o'zlari to'g'ri deb topgan harakatni ko'rsatilgan kataklar ichiga maxsus belgilar (+, -, X, Y) bilan belgilash tushuntiriladi;
- har bir guruh a'zosi individual tarzda ko'rsatilgan kataklarga o'z javoblarni belgilaydi va o'qituvchi navbatdagi bosqichda guruhlarning javoblar varaqasini soat strelkasi tartibida almashtiradi;

- u harakat to har bir guruhning dastlabki ishi o'ziga qaytib kelguniga qadar takrorlanadi. Tarqatma materiallar o'z egalariga etib kelganidan so'ng o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qib eshittiradi.
- ishtirokchilar to'g'ri javoblarni dastlabki belgilari bo'yicha tekshirib, har bir to'g'ri javobni «1» ball bilan baholaydilar.
- trening yakunida o'qituvchi baholash mezonini o'qib eshittiradi va har bir ishtirokchi yig'gan to'g'ri javoblari bo'yicha o'z-o'zini baholaydi. (Masalan, harakatlar 12 ta bo'lsa, bunda: 11-12 to'g'ri javob uchun «a'lo», 9-10 ta to'g'ri javob uchun «yaxshi», 6-8 ta to'g'ri javob uchun «qoniqarli» baho beriladi).
- trener baholarga aniqlik kiritadi va mashg'ulotning zaruriy jihatlarini umumlashtirib, xulosalaydi.

Namuna: “Ta’limni tashkil etish shakl, metod va vositalari” mavzusidagi ishlanma.

	SHakl, metod va vositalari	SHakl	Metod	Vosita
1	Trening	+		
2	Suhbat		+	
3	Taqdimot			+
4	Grafik organayzer			+
5	Amaliy o'yin		+	
6	Ko'rgazmali		+	
7	Laboratoriya	+		
8	Skayp			+
9	Interaktiv doska			+
10	Ma'ruza	+		
11	Elektron darslik			+
12	Mashq		+	


Venn Diagrammasi (ingliz faylasufi Djon Venna nomi bilan atalgan).

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna:



Taqqoslash uchun:

Fundamental tadqiqotlar - u yoki bu voqea-hodisalar va jarayonlarni tasvirlash va tushuntirib berishni, ularni ishlash mexanizimi va qonuniyatlarini ochishni maqsad qilib qo‘yadi.

Amaliy tadqiqotlar- bilib olingan qonuniyatlarni amaliy faoliyatda qo‘llash usullarini belgilab beradi.

Ishlab chiqaruvchi tadqiqotlar - amaliyotchilarga zarur bo'lgan materiallar, ko'rsatmalar, metodik vosita va qo'llanmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

“Sinkveyn” metodi

Metodning maqsadi: “Sinkveyn” so‘zi frantso‘zcha so‘zdan olingan bo‘lib, “besh misradan iborat she‘r” tarjimasini beradi. Amaliyotda “Sinkveyn”: murakkab axborotlarni sintezlash quroli va tushunchalar zahirasini baholash vositasi; ijodiy ifodalilik vositasi sifatida juda foydalidir. “Sinkveyn” tayanch kasbiy tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor vosita hisoblanadi.

“Sinkveyn” to‘zish qoidasi quyidagicha:

- birinchi qatorda bir so‘z bilan mavzu yoziladi - odatda ot turkumidagi oid so‘z bilan;
- ikkinchi qatorda mavzu ikki so‘z bilan ta’svirlanadi - sifat turkumiga oid ikki so‘z bilan;
- uchinchi qatorda ushbu mavzu bo‘yicha xatti-harakatlar uch so‘z bilan ta’svirlanadi;
- to‘rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko‘rsatuvchi to‘rtta so‘zdan iborat gap yoziladi;
- beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so‘zdan iborat sinonim shakllantiriladi.

Namuna: Kompyuter so‘ziga to‘zilgan “Sinkveyn” Kompyuter Sifatli, tezkor To‘playdi, saqlaydi, o‘zatadi Zamonaviy axborot texnologiya vositasi Intelekt

Ikki qismli kundalik metodi

Metodning maqsadi – mazkur metod nafaqat matnning mazmunini o‘rganishga, matn mazmunini o‘zining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashga va

o'zlashtirgan axborot, g'oya, yoki fikrlarga nisbatan o'z munosabatini yozma ifoda etishga imkon beruvchi oddiy va samarali usul bo'lib, sportchilardagi shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Metodni o'tkazish tartibi:

- ish daftari vertikal chiziq bo'yicha ikkiga bo'linadi.
- chap tomonga sportchilar mavzu yuzasidan unda taassurot uyg'otgan, yoqqan yoki savol tug'dirgan tsitata, g'oya yoki fikrlarini yozadi (masalan, juda aqlli ta'rif, dalil yoki sabab va boshqalar).
- o'ng tomonda keltirilgan tsitata yoki fikrga o'zining sharhlarini yozadi, ya'ni o'z munosabatini quyidagi yo'nalishlarda bildiradi: Uni bu fikr yoki g'oyaning nimasi qiziqtirdi va yozib olishga undadi? Bu nima haqda o'ylashga majbur etdi? Bu fikr bo'yicha u qanday savollarni o'yladi?
- matnni o'qiyotganida sportchilar kerakli qo'shimcha fikrlarni aniqlab, kundalikka yozib boradi.
- ish yakunlagandan so'ng sportchilar juftliklarda ishlashlari, tahlillarini almashishlari, o'rtoqlari tahlilida ularga yoqqan fikrni muhokama etishlari va ko'rsatishlari mumkin.

Trenergga tavsiyalar

- Siz oldindan tsitatalar yoki g'oyalar sonini belgilab olishingiz mumkin (misol uchun, 2 ta, 4 yoki 5 tadan), - tsitatalar mazmuni va yo'nalishi mutaxassislik, fan yoki mavzuga mos bo'lishi, kerak.
- Agarda siz ijtimoiy-tarbiyaviy mavzuda bu treningni o'tkazmoqchi bo'lsangiz g'oyalar yoki tsitatalar hayotiy-ijtimoiy mavzularda tanlanishi mumkin bo'ladi. Bularning barchasi siz o'z oldingizga qo'ygan maqsadga va sizning pedagogik uslubingizga bog'liq bo'ladi.
- Ish shakllari:
- uchliklarda ishlash;
- kichik guruhlarda ishlash;

- blits-so‘rov – siz bir qator sportchilardan faqat bitta tsitatani va faqat birgina sharhni o‘qib berishni so‘raysiz;

Yakunlar munozara tayyorlash yoki o‘tkazish, insho yozish yoki asoslangan esse yozish uchun xizmat qilishi mumkin.

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: sportchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. SHundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketmaketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va sportchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. SHundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

4-5 – to‘g‘ri javob – qoniqarli; 6-7 – to‘g‘ri javob – yaxshi; 8-9 – to‘g‘ri javob – a‘lo tartibida baholanadi.

“Brifing” metodi.

“Brifing”- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferentsiya.

O‘tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. SHuningdek, amaliy o‘yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag‘ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo‘ladi.

“Portfolio” metodi. “Portfolio” – (ital. portfolio-portfelʼ, ingl.hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy

Ta'limiy faoliyat	O'quvchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, o'quvchi portfoliosi va boshq	O'quvchilar guruhi, o'quvchilar guruhiportfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakul'tet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Nazorat savollari:

1. Interfaol ta'lim tushunchasiga ta'rif bering?
2. Interfaol ta'limning asosiy tamoyillarini sanang?
 3. Ma'ruza mashg'ulotlarida foydalanish mumkin bo'lgan interfaol ta'lim metodlari haqida ma'lumot bering?
 4. O'quvchilarning ko'nikma va malakalarini baholashga xizmat qiluvchi interfaol ta'lim metodlariga misol keltiring?
5. Assessment metodi va grafik organayzerlarning mazmunini yoriting?

**III. NAZARIY
MASHG‘ULOTLAR
MAZMUNI**

III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Jismoniy madaniyat nazariyasining yetakchi tushunchalari va jismoniy madaniyatning ijtimoiy mohiyati

2 soat

Reja:

- 1.1 Jismoniy madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati.
- 1.2 Jismoniy madaniyatning shaxs rivojlanishiga ta’siri.
- 1.3 Jismoniy madaniyatni jamiyatdagi ijtimoiy hodisa sifatida tushunish.

Annotatsiya:

Ushbu mavzu tinglovchilarga jismoniy madaniyatning asosiy tushunchalari va uning jamiyatdagi ahamiyati haqida nazariy bilimlar beradi. Mavzu shaxs va jamiyatning sog‘lom hayot tarzini shakllantirishdagi rolga alohida e’tibor qaratadi.

1.1. Jismoniy madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati

Jismoniy madaniyat tushunchasi insonning jismoniy rivojlanishi va salomatlikni ta’minlashga qaratilgan amaliy va nazariy faoliyatlar yig‘indisini anglatadi. Bu tushuncha insonning ijtimoiy hayoti va shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatli elementlardan biri hisoblanadi. Jismoniy madaniyat nafaqat sport mashg‘ulotlari yoki jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi, balki shaxsning umumiy salomatlik darajasini oshirishga qaratilgan kundalik faoliyatini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Jismoniy madaniyatning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u jamiyatda sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish, jismoniy faollikni oshirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, jismoniy madaniyat ijtimoiy institut sifatida jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Sog‘lom jamiyatni shakllantirish uchun jismoniy madaniyat faoliyati asosiy vosita sifatida ko‘riladi.

Sogʻlom hayot tarzi: Jismoniy madaniyat insonlarning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Bu jarayonda sport, mashqlar va boshqa jismoniy faolliklar asosiy rol oʻynaydi.

Ijtimoiy birdamlik: Jismoniy madaniyat sport musobaqalari, ommaviy tadbirlar orqali turli ijtimoiy guruhlarni birlashtiradi. Bu jarayonda oʻzaro hamkorlik va oʻzaro hurmatning kuchayishi kuzatiladi.

Taʼlimiy ahamiyat: Jismoniy madaniyat bolalar va yoshlarda maʼnaviy va jismoniy qobiliyatlarni shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

1.2. Jismoniy madaniyatning shaxs rivojlanishiga taʼsiri

Jismoniy madaniyatning shaxs rivojlanishiga taʼsiri keng qamrovli boʻlib, u insonning ruhiy va jismoniy holatini mustahkamlash, shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish va oʻz-oʻzini boshqarish qobiliyatini oshirish kabi sohalarda namoyon boʻladi.

Birinchi navbatda, jismoniy mashqlar va sport insonning sogʻligʻini yaxshilash bilan birga, uning miyasidagi kognitiv jarayonlarga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Jismoniy faollik orqali stressni kamaytirish va ruhiy holatni barqarorlashtirish mumkin.

Bundan tashqari, jismoniy madaniyat insonning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi. Yutuq va muvaffaqiyatlarga erishish orqali inson oʻz shaxsiy qadr-qimmatini anglaydi va yangi marralarga erishishga intiladi. Jismoniy madaniyat shuningdek, insonning jamoa bilan ishlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Jamoaviy sport turlari orqali insonlar oʻzaro muvofiqlik, hamkorlik va jamoaning bir qismi sifatida ishlashni oʻrganadi.

Ruhiy taʼsir: Jismoniy madaniyat insonning psixologik holatini barqarorlashtiradi. Muntazam mashqlar depressiyani kamaytiradi va hayotdan qoniqish hissini oshiradi.

Jismoniy taʼsir: Mashqlar orqali insonning tanasi chiniqadi, sogʻlom boʻladi va kasalliklarning oldi olinadi.

Shaxsiy rivojlanish: Jismoniy faoliyat shaxsiy intizomni kuchaytiradi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

1.3. Jismoniy madaniyatni jamiyatdagi ijtimoiy hodisa sifatida tushunish

Jismoniy madaniyat jamiyatdagi ijtimoiy hodisa sifatida, insonlarning o'zaro munosabatlarini shakllantiruvchi va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu hodisa turli darajadagi jamiyat a'zolarining sport musobaqalari, sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar va boshqa jismoniy faoliyat turlarida ishtirok etish orqali o'zaro muloqot qilishiga asoslangan.

Jismoniy madaniyat, shuningdek, milliy madaniyatning bir qismi sifatida ham ko'riladi. Sport va jismoniy mashqlar milliy an'analar, qadriyatlar va jamiyatda keng tarqalgan ijtimoiy normalarni aks ettiradi. Shu sababli, jismoniy madaniyatni rivojlantirish milliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, jismoniy madaniyat sog'liqni saqlash tizimining bir qismi sifatida jamiyat a'zolarining salomatligini yaxshilash va ularning turmush sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Sog'lom turmush tarzi targ'iboti orqali aholining umumiy madaniy darajasi va ijtimoiy mas'uliyati oshadi.

Ijtimoiy munosabatlar: Jismoniy madaniyat turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda vosita sifatida xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar: Milliy sport turlari va an'anaviy jismoniy faoliyat madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Jamiyat sog'lig'i: Jismoniy madaniyat sog'lom jamiyatni shakllantirish va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

2-mavzu. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Nazariy ta'lim mazmuni (2 soat)

- **Reja:**
 1. Jismoniy madaniyat nazariyasining tabiiy fanlar bilan bog'liqligi.
 2. Jismoniy madaniyat va pedagogika o'rtasidagi integratsiya.
 3. Psixologiya va jismoniy madaniyatning o'zaro ta'siri.

- **Annotatsiya:**

Mavzu jismoniy madaniyat fanining boshqa ilmiy yo‘nalishlar bilan bog‘liqligini tahlil qiladi. Bu tinglovchilarni ko‘p tarmoqli yondashuvni tushunishga o‘rgatadi.

2.1. Jismoniy madaniyat nazariyasining tabiiy fanlar bilan bog‘liqligi

Jismoniy madaniyat nazariyasi tabiiy fanlar bilan uzviy bog‘langan, chunki inson organizmining jismoniy imkoniyatlarini tushunish va rivojlantirish tabiiy fanlar asosida amalga oshiriladi.

Anatomiya va fiziologiya: Jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillari, jumladan, mashqlar organizmga qanday ta’sir qilishini tahlil qilish, mushaklar, suyaklar va yurak-qon tomir tizimining faoliyatini bilishga asoslanadi. Masalan, intensiv jismoniy faoliyat yurakning qisqarish chastotasiga qanday ta’sir qilishini aniqlash uchun fiziologik bilimlar muhimdir.

Kimyo: Mashqlar vaqtida organizmda moddalar almashinuvi jarayonlarini tushunish orqali energiya sarfini hisoblash va to‘g‘ri ovqatlanishni tashkil etish muammolari hal qilinadi.

Gigiyena: Mashqlarni bajarish jarayonida sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, jismoniy tarbiya muhitini tashkil etish gigiyena faniga tayanadi. Bu jarayon bolalarning sog‘lig‘ini saqlash va ularning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Jismoniy madaniyat va pedagogika o‘rtasidagi integratsiya

Jismoniy madaniyat pedagogika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilar va sportchilarni maqsadli tarbiyalash va o‘qitishda pedagogik tamoyillar asosida ishlaydi.

Pedagogik nazariya va amaliyot: Jismoniy tarbiya pedagogik faoliyatning bir qismi bo‘lib, bolalarni jismoniy jihatdan rivojlantirishda dars metodikasi va tarbiyaviy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, maktab jismoniy tarbiya darslarida yosh xususiyatlariga mos mashg‘ulotlarni tashkil etish pedagogik tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy maqsadlar: Jismoniy madaniyat orqali o'quvchilarda irodaviy sifatlar, jamoaviylik va mas'uliyatni shakllantirish pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ko'riladi.

O'quv metodikasi: Jismoniy madaniyat o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarga ega qilishda o'qitish texnologiyalaridan foydalanadi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari, masalan, interaktiv metodlar va multimediya vositalari jismoniy madaniyat faniga ham tatbiq etilmoqda.

2.3. Psixologiya va jismoniy madaniyatning o'zaro ta'siri

Psixologiya fani jismoniy madaniyatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda psixologik yondashuvlarni qo'llashni ta'minlaydi.

Motivatsiya: Sportda va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ishtirokchilarni rag'batlantirish psixologik jarayonlarni chuqur tushunishni talab etadi. Psixologiya motivatsiya mexanizmlarini shakllantirish orqali bolalarda qiziqishni oshirishga yordam beradi.

Stress va zo'riqishni boshqarish: Sport mashg'ulotlari jarayonida psixologik stressni boshqarish usullarini qo'llash sportchilar va o'quvchilar samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Masalan, diqqatni jamlash yoki ruhiy tinchlikni saqlash usullari sport natijalariga ijobiy ta'sir qiladi.

Psixofiziologik moslashuv: Jismoniy mashqlar jarayonida psixologik va fiziologik omillar o'rtasidagi muvozanatni saqlash psixologik tayyorgarlik bilan bevosita bog'liq. Bu, ayniqsa, yuqori darajadagi sport musobaqalarida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi tabiiy fanlar, pedagogika va psixologiya bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Ushbu fanlar o'rtasidagi integratsiya bolalarning jismoniy, aqliy va ruhiy salohiyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi va jismoniy madaniyatni chuqur anglashga xizmat qiladi.

3-mavzu. Jismoniy tarbiya vositalari, uslubi, tamoyillari (2 soat)

Nazariy ta'lim mazmuni (2 soat)

- **Reja:**

1. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari.
2. Mashg'ulot uslubiyatining nazariy asoslari.
3. Jismoniy tarbiya tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati.

- **Annotatsiya:**

Mavzu jismoniy tarbiya jarayonidagi vositalar, uslublar va tamoyillar haqida bilimlar beradi. Bu bilimlar jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3.1. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari

Jismoniy tarbiya jarayonida qo'llaniladigan vositalar insonning jismoniy salohiyatini oshirish va uning sog'ligini mustahkamlash uchun zarurdir. Ushbu vositalar jismoniy tarbiya mazmunining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va ular orqali o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya vositalari quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi:

Jismoniy mashqlar:

Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning eng asosiy vositasi hisoblanadi. Ular mushaklarning faolligini oshirish, organizmni chiniqtirish va harakat ko'nikmalarini shakllantirish uchun ishlatiladi. Mashqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar: Umumiy sog'liqni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar. Bu mashqlar o'quvchilarning asosiy harakat qobiliyatlarini (chaqqonlik, chidamlilik, kuch) rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sport mashqlari: Ular sport turlari bilan bog'liq bo'lib, maxsus harakat texnikalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Qiziqarli mashqlar: Bolalarda qiziqishni oshiruvchi o'yin va musobaqa shaklidagi mashqlar.

Tabiiy omillar:

Jismoniy tarbiya jarayonida tabiatning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish inson organizmini chiniqtirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan:

Quyosh nuri va havodan foydalanish.

Suv bilan chiniqtirish usullari (suvda suzish yoki kontrastli dush qabul qilish).

Ochiq havoda mashg'ulotlar tashkil etish.

Hayotiy harakatlar:

Kundalik hayotda qo'llaniladigan harakatlar, masalan, yugurish, yurish, sakrash, tortishish, suzish va boshqa harakatlar jismoniy tarbiya vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Bu harakatlar insonning tabiiy ehtiyojlariga mos keladi va sog'liqni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya jihozlari:

Turli xil sport jihozlari va qurilmalari mashqlar samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, turnik, gantel, to'plar, gimnastika matlari va boshqa sport jihozlari jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarishga yordam beradi.

Nazariy bilimlar:

Jismoniy tarbiya faqatgina amaliy mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmaydi. Nazariy bilimlar o'quvchilarga jismoniy faoliyatning mohiyatini, uning sog'liqqa ta'sirini va amaliyotda qanday amalga oshirilishini tushunishga yordam beradi.

3.2. Mashg'ulot uslubiyatining nazariy asoslari

Mashg'ulot uslubiyati – bu jismoniy tarbiya jarayonida qo'llaniladigan usullar va texnikalar to'plamidir. U o'quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy holati va dastur talablaridan kelib chiqib belgilanadi. Mashg'ulot uslubiyatining nazariy asoslari quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

Mashg'ulot usullarining turlari:

Ko'rsatma va tushuntirish usuli: Bu usulda mashqni qanday bajarish kerakligi o'quvchilarga ko'rsatma va tushuntirish orqali yetkaziladi. Masalan, o'quvchilarga harakat texnikasini namoyish qilish va uni tushuntirish.

Amaliy mashq usuli: Ushbu usulda o'quvchilar harakatlarni takroriy bajarish orqali ko'nikmalarni shakllantiradilar.

Rag'batlantirish usuli: O'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga rag'batlantirish uchun qo'llaniladi.

O‘yin usuli: O‘yin orqali o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladi. Bu usul, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun samarali hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish:

Mashg‘ulotlarning samaradorligi ularga qanday tayyorgarlik ko‘rilganiga bog‘liq. Rejalashtirishda quyidagilar hisobga olinadi:

O‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi.

Mashg‘ulotlarning davomiyligi va intensivligi.

Mashqlarni murakkablik darajasi bo‘yicha tanlash.

Mashg‘ulotning psixologik jihatlari:

O‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish.

Diqqatni jamlash va motivatsiyani oshirish.

Stress va zo‘riqishni boshqarish texnikalarini qo‘llash.

Tahlil va natijalarni baholash:

Har bir mashg‘ulotdan so‘ng uning samaradorligini baholash, mashqlar bajarilishining sifatiga e‘tibor qaratish, shuningdek, o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish muhimdir.

3.3. Jismoniy tarbiya tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati

Jismoniy tarbiya tamoyillari bu jarayonning asosiy qoidalari bo‘lib, ular jismoniy mashg‘ulotlarni samarali va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Izchillik va bosqichma-bosqichlik tamoyili:

Jismoniy tarbiya jarayoni muntazam ravishda va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Har bir bosqich o‘quvchining oldingi bosqichda erishgan natijalariga asoslanadi.

Mashqlarni asta-sekin murakkablashtirish orqali organizmning yangi sharoitlarga moslashuviga imkon beriladi.

Individual yondashuv tamoyili:

Har bir o'quvchining yosh, jismoniy holat, jinsiy va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan, ortiqcha vaznga ega yoki jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun mashqlar alohida rejalashtiriladi.

Faollik va ongli yondashuv tamoyili:

O'quvchilar mashg'ulotlarda faollik bilan ishtirok etishi va bajarilayotgan mashqlar mazmunini tushunishi kerak.

O'quvchilarga mashqlarni bajarishdan kutilayotgan natijalarni tushuntirish orqali ularning jarayonga qiziqishi oshiriladi.

Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili:

Jismoniy tarbiya muntazam ravishda amalga oshirilishi kerak. Bir martalik yoki tasodifiy mashg'ulotlar orqali yuqori natijaga erishib bo'lmaydi.

Mashqlarni tizimli ravishda o'tkazish orqali organizmda sog'lom odat shakllantiriladi.

Chidamlilik va xavfsizlik tamoyili:

Mashg'ulotlarda jismoniy yuklama me'yoridan oshmasligi lozim. Haddan tashqari zo'riqish organizmga zarar yetkazishi mumkin.

Mashqlarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda bajarish talab etiladi.

Nazorat va baholash tamoyili:

Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi muntazam nazorat qilinadi va baholanadi.

Mashg'ulotlarning samaradorligini tahlil qilish orqali keyingi mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan o'zgartirishlar kiritiladi.

Xulosa qilib aytganda jismoniy tarbiya vositalari, uslublari va tamoyillari o'quvchilarni jismoniy, ruhiy va aqliy rivojlantirishning asosiy omillaridir. Ularni to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish va sog'ligini mustahkamlashga erishish mumkin.

4-mavzu. Jismoniy yuklamalar. Jismoniy tarbiya darsida yuklama.

Yuklamalarning tarkibiy qismlari

Nazariy ta'lim mazmuni (2 soat)

- **Reja:**

1. Jismoniy yuklamaning nazariy asoslari.
2. Jismoniy tarbiya darsida yuklama rejasi va taqsimoti.
3. Yuklamalarning turlari va ularning tarkibiy qismlari.

- **Annotatsiya:**

Mavzu jismoniy yuklamalar va ularning nazariy asoslarini o'rgatadi. Yuklamalarni to'g'ri taqsimlashning amaliy ahamiyati ochib beriladi.

4.1. Jismoniy yuklamaning nazariy asoslari

Jismoniy yuklama tushunchasi inson organizmining muayyan jismoniy faoliyatni bajarishdagi reaksiya va moslashuvlarini ifodalaydi. Bu reaksiya organizmning tashqi ta'sir kuchlariga javoban ko'rsatadigan moslashish darajasi sifatida aniqlanadi. Jismoniy yuklama o'z ichiga quyidagi asosiy elementlarni oladi:

Jismoniy kuchlanish: Bu muskullarning jismoniy faoliyat paytida ko'rsatiladigan ish hajmini anglatadi. Muskullar faoliyatga jalb qilinganda yurak-qon tomir tizimi va nafas olish jarayoni ham faol ishlaydi.

Biologik moslashuv: Tana tashqi yuklamalarga moslashganda, yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi va mushaklarda energiya ishlab chiqarish jarayonlari tezlashadi.

Psixologik omillar: Jismoniy yuklamalar nafaqat tanaga, balki ruhiyatga ham ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya va intilish jarayonlari ham jismoniy yuklamaning muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Jismoniy yuklama nazariyasi insonning tabiiy harakatlari, ularning biologik va fiziologik asoslari, shuningdek, yuklamaning optimal darajalarini aniqlash orqali rivojlantiriladi. Yuklamalarni me'yorlashda asosiy tamoyillar quyidagilardir:

Progressiv yuklama: Yuklamalarni asta-sekin oshirish orqali organizmning moslashuv qobiliyatini rivojlantirish.

Mutanosiblik: Har bir shaxsning jismoniy tayyorgarligi darajasiga muvofiq yuklamalarni belgilash.

Tana tiklanishi: Yuklamalar va dam olish davrlarini muvozanatda saqlash orqali ortiqcha charchashning oldini olish.

4.2. Jismoniy tarbiya darsida yuklama rejasi va taqsimoti

Jismoniy tarbiya darslarida yuklamalar rejalashtirilgan holda tashkil etiladi. Bu jarayon bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Boshlang'ich tayyorgarlik: Dars boshlanishida yengil mashqlar yordamida tanani jismoniy faoliyatga tayyorlash. Bunga yengil yugurish, cho'ziluvchanlik mashqlari va nafas olish mashqlari kiradi.

Asosiy yuklama: Darsning asosiy qismida yuqori intensivlikdagi mashqlar amalga oshiriladi. Bu bosqichda harakatli o'yinlar, jismoniy tayyorgarlikni oshiruvchi murakkab mashqlar bajariladi.

Yakuniy bosqich: Mashqlarni tugatgach, tana faoliyatini normallashtiruvchi harakatlar bajariladi. Masalan, yengil cho'ziluvchanlik mashqlari va nafas olish texnikasi.

Dars rejasi quyidagicha taqsimlanadi:

Boshlang'ich qism (15-20 daqiqa): Qizdirish mashqlari va tayyorgarlik.

Asosiy qism (30-45 daqiqa): Faol harakatlar va yuqori yuklama talab qiluvchi mashqlar.

Yakuniy qism (10-15 daqiqa): Tana tiklanishiga qaratilgan yengil mashqlar.

Jismoniy tarbiya darslarida yuklamalarni to'g'ri taqsimlash orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

Maksimal samaradorlik: Har bir o'quvchi o'z salohiyatiga muvofiq yuklamani qabul qiladi.

Charchashning oldini olish: Yuklamalarni to'g'ri taqsimlash charchash va jarohatlar xavfini kamaytiradi.

Jismoniy rivojlanish: Faoliyat natijasida tananing barcha tizimlari uyg'un rivojlanadi.

4.3. Yuklamalarning turlari va ularning tarkibiy qismlari

Yuklamalar quyidagi turlarga bo'linadi:

Statik yuklama: Bu yuklama turida mushaklar uzoq vaqt davomida bir xil holatda saqlanadi. Masalan, plank mashqi yoki to'g'ri turgan holda mashqlar bajarish.

Dinamik yuklama: Mushaklar doimiy ravishda harakat qiladi. Bu turga yugurish, suzish va boshqa harakatlar kiradi.

Ayrim mushak guruhlariga mo'ljallangan yuklama: Maxsus mushak guruhlarini kuchaytirishga qaratilgan mashqlar. Masalan, qo'l, oyoq yoki bel mushaklarini mustahkamlash mashqlari.

Yuklamalarning tarkibiy qismlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Intensivlik: Mashqlarning bajarilish darajasi. Bu, odatda, yurak urishi yoki mashqlar tezligi bilan o'lchanadi.

Davomiylilik: Mashqlarni bajarish vaqtining uzunligi.

Takrorlash soni: Har bir mashqni necha marta bajarish kerakligi.

Tanaffuslar: Mashqlar orasidagi dam olish vaqtining davomiyligi.

Bu tarkibiy qismlar o'quvchilarning yoshiga, jismoniy tayyorgarligiga va sog'lig'iga qarab moslashtiriladi. Masalan, yosh bolalar uchun yuklamalar qisqaroq va yengilroq bo'lishi kerak, kattalar esa yuqori intensivlikdagi mashqlarni bajarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda jismoniy yuklamalarni nazariy asoslari, dars rejasi va yuklamalarning tarkibiy qismlari haqida chuqur bilimga ega bo'lish, o'quvchilarni jismoniy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya darslarida yuklamalarni to'g'ri rejalashtirish nafaqat o'quvchilarni sog'lomlashtiradi, balki ularning aqliy va psixologik holatini ham yaxshilaydi.

5-mavzu. Harakatlarga o'rgatish asoslari. Mashg'ulot yuklama shiddatini nazorat qilish. Oddiy texnik harakatlar

Nazariy ta'lim mazmuni(2 soat)

- **Reja:**

1. Harakatlarga o'rgatish jarayonining psixologik va pedagogik asoslari.

2. Mashg‘ulot yuklamasi shiddatini boshqarish va nazorat qilish prinsiplari.
3. Oddiy texnik harakatlarning o‘rganilishi va ularning rivojlantirishdagi roli.

- **Annotatsiya:**

Ushbu mavzuda harakatlarga o‘rgatishning nazariy asoslari va jarayonlari, mashg‘ulot yuklamasini boshqarish va shiddatini nazorat qilish usullari haqida ma’lumot beriladi. Bundan tashqari, oddiy texnik harakatlarning jismoniy tarbiya jarayonidagi ahamiyati va ularni o‘rgatishning usullari muhokama qilinadi. Tinglovchilar harakatlarga o‘rgatishning ilmiy asoslarini va yuklama shiddatini optimallashtirish bo‘yicha nazariy bilimlarni egallaydilar.

5.1. Harakatlarga o‘rgatish jarayonining psixologik va pedagogik asoslari

Harakatlarga o‘rgatish jarayoni insonning psixologik va pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. **Psixologik omillar:**

- **Idrok va diqqat:** Harakatlarni to‘g‘ri idrok qilish va ularga e‘tibor qaratish muvaffaqiyatli o‘rgatishning asosidir. O‘quvchilar mashqlarni tushunishi va ularga diqqat bilan yondashishi kerak.

- **Motivatsiya:** O‘quvchida o‘zlashtirish istagini shakllantirish uchun motivatsiya yaratish zarur. Bu orqali o‘quvchi mashg‘ulotlarga ijobiy yondashadi.

- **Moslashuv:** Yangi harakatlarni o‘rganishda organizmning moslashuv jarayoni muhim rol o‘ynaydi. Har bir bosqichda individual yondashuv zarur.

2. **Pedagogik tamoyillar:**

- **Didaktik ketma-ketlik:** Harakatlarni o‘rgatishda bosqichma-bosqich yondashuv qo‘llaniladi. Harakatlar avval nazariy jihatdan tushuntirilib, so‘ng amaliyotda bajariladi.

- **Qayta aloqaning roli:** O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot mashqlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

- **Amaliy mashqlar:** Harakatlarni takrorlash va ularni amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarni ko'nikmalarini mustahkamlashga e'tibor qaratiladi.

3. Jarayon bosqichlari:

- **Harakatni o'rganish:** Harakatni umumiy shaklda tushuntirish va ko'rsatish.

- **Ko'nikmalarni rivojlantirish:** Harakatlarni takrorlash orqali mahorat darajasini oshirish.

- **Avtomatizatsiya:** Harakatlarni avtomatik ravishda bajarish darajasiga erishish.

Ushbu asoslar harakatlarni o'rgatish jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarda muvaffaqiyatli jismoniy ko'nikmalarni shakllantiradi.

5.2. Mashg'ulot yuklamasi shiddatini boshqarish va nazorat qilish prinsiplari

Mashg'ulot yuklamasini boshqarish va nazorat qilish jismoniy tarbiya jarayonining muhim qismidir. Bu prinsiplar orqali mashg'ulotlar samaradorligi oshiriladi va ortiqcha yuklamalarning oldi olinadi.

1. Yuklama shiddatini boshqarish:

- **Optimal yuklama:** Har bir o'quvchi uchun uning jismoniy holatiga mos yuklama darajasi belgilanadi.

- **Yuklamaning bosqichma-bosqich oshishi:** Jismoniy faollik darajasini asta-sekin oshirish orqali organizmni yangi sharoitlarga moslashishga undash.

2. Shiddatni nazorat qilish usullari:

- **Fiziologik ko'rsatkichlar:** Yurak urish tezligi, nafas olish chastotasi va terlash darajasi kabi ko'rsatkichlar kuzatiladi.

- **Subyektiv baholash:** O'quvchilarning o'zlarini qanday his qilishlari haqida fikr-mulohazalarini tinglash orqali yuklamani moslashtirish.

- **Nazorat testlari:** Harakat tezligi, kuch va chidamlilikni o'lchash uchun testlar o'tkaziladi.

3. Dam olish va tiklanish:

- **Tanaffuslarni rejalashtirish:** Mashg‘ulot davomida tanaffus vaqtlarini aniq belgilash.

- **Reabilitatsion mashqlar:** Mashg‘ulotlardan keyin tiklanish uchun yengil mashqlar bajarish.

4. **Individual yondashuv:**

- Har bir o‘quvchining jismoniy holatini inobatga olgan holda yuklamalarni belgilash va shiddatini nazorat qilish.

Mashg‘ulot yuklamasini boshqarish va nazorat qilish orqali jismoniy tarbiya jarayoni sog‘lomlashtirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

5.3. Oddiy texnik harakatlarning o‘rganilishi va ularning rivojlantirishdagi roli

Oddiy texnik harakatlar jismoniy tarbiya jarayonining asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, ular insonning umumiy jismoniy holatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

1. **Oddiy texnik harakatlar tushunchasi:**

- Bu turdagi harakatlarga yugurish, sakrash, turtish, cho‘zilish kabi asosiy harakatlar kiradi.

- Oddiy texnik harakatlar bir vaqtning o‘zida bir nechta mushak guruhlarini faollashtiradi.

2. **O‘rganish usullari:**

- **Tushuntirish va namoyish:** Harakatni bajarish texnikasini batafsil tushuntirish va amalda ko‘rsatish.

- **Takrorlash:** Harakatni qayta-qayta bajarish orqali ko‘nikmalarni rivojlantirish.

- **Tahlil:** Harakatni video yoki kuzatuv yordamida tahlil qilish va xatolarni tuzatish.

3. **Rivojlantirishdagi roli:**

- **Muvofiqlikni oshirish:** Oddiy texnik harakatlar muvozanat, koordinatsiya va moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

- **Chidamlilikni oshirish:** Bunday harakatlar yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlaydi.

- **Sog'lomlashtirish:** Oddiy harakatlar orqali organizmning umumiy salomatligi yaxshilanadi.

4. **Mashg'ulotlarda qo'llanilishi:**

- Har bir mashg'ulotni oddiy texnik harakatlar bilan boshlash va yakunlash tavsiya etiladi.

- Oddiy texnik harakatlar jismoniy tarbiya dasturining ajralmas qismi sifatida kiritiladi.

Xulosa qilib aytganda harakatlarga o'rgatish, mashg'ulot yuklamasi shiddatini boshqarish va oddiy texnik harakatlarning o'rganilishi o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyillarni samarali qo'llash orqali sog'lom avlodni tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Nazorat savollar

1. Jismoniy madaniyatning asosiy tushunchalari nimalardan iborat va uning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini qanday tushunasiz?

2. Jismoniy madaniyatning shaxs rivojlanishiga ta'sirini tushuntirib bering.

3. Jismoniy madaniyatni jamiyatdagi ijtimoiy hodisa sifatida qanday tushunasiz?

4. Jismoniy madaniyat nazariyasining tabiiy fanlar bilan bog'liqligi haqida misollar keltiring.

5. Jismoniy madaniyat va pedagogika o'rtasidagi integratsiya qanday amalga oshiriladi?

6. Psixologiya va jismoniy madaniyatning o'zaro ta'siri qanday namoyon bo'ladi?

7. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalarini va ularning amaliy ahamiyatini tushuntiring.

8. Jismoniy tarbiya tamoyillari va ularning amaliy ahamiyatini bayon eting.

**IV. AMALIY
MASHG'ULOTLAR
MAZMUNI**

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Jismoniy yuklamalar. Jismoniy tarbiya darsida yuklama. Yuklamalarning tarkibiy qismlari (4 soat)

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

• Reja:

1. Jismoniy yuklamalarni aniqlash va o‘lchash texnikalarini amaliy qo‘llash.
2. Mashg‘ulot yuklamalarining tarkibiy qismlarini aniqlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulot.
3. Jismoniy yuklamalarni individual imkoniyatlarga moslashtirish.

• Annotatsiya:

Ushbu amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar jismoniy yuklamalarni o‘lchash, tahlil qilish va turli jismoniy holatlarda moslashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Mashg‘ulot davomida yuklamalarni shaxsiylashtirish bo‘yicha amaliy ishlar bajariladi.

6.1. Jismoniy yuklamalarni aniqlash va o‘lchash texnikalarini amaliy qo‘llash

Jismoniy yuklamalarni aniqlash va o‘lchash har bir mashg‘ulotning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi texnikalar qo‘llaniladi:

1. Fiziologik ko‘rsatkichlarni kuzatish:

○ **Yurak urish tezligi:** Mashg‘ulot davomida yurak urishining chastotasini maxsus qurilmalar yoki qo‘l bilan o‘lchash. Optimal yurak urish tezligi mashg‘ulotning samaradorligini ko‘rsatadi.

○ **Qon bosimi:** Harakatdan oldin va keyin qon bosimini o‘lchash orqali yuklamaning organizmga ta‘sirini baholash.

○ **Nafas olish tezligi:** Yuklama darajasiga qarab nafas olishning qanday o‘zgarishini kuzatish.

2. **Subyektiv baholash usuli:**

○ **Borg shkalasi:** Mashg'ulot shiddatini o'quvchilarning shaxsiy his-tuyg'ulari asosida baholash uchun qo'llaniladi. 6 dan 20 gacha bo'lgan shkalada o'quvchilar o'zlarining charchoq darajasini baholaydilar.

○ **Holatni kuzatish:** O'qituvchi o'quvchilarning charchoq alomatlarini (masalan, tez-tez nafas olish, terlash) kuzatib baholaydi.

3. **Texnik vositalardan foydalanish:**

○ **Yurak urish monitorlari:** Real vaqt rejimida yurak urish tezligini kuzatish imkonini beradi.

○ **Fitnes brendlar:** Jismoniy harakat vaqtida qadamlar soni, yurak urishi, nafas olish darajasi va boshqa ko'rsatkichlarni o'lchash uchun ishlatiladi.

Mazkur usullar amaliyotda qo'llanilganda, o'quvchilar o'z jismoniy holatini yaxshiroq tushunib, yuklamalarni samarali boshqarishga qodir bo'ladi.

6.2. Mashg'ulot yuklamalarining tarkibiy qismlarini aniqlash bo'yicha amaliy mashg'ulot

Jismoniy yuklamalar bir nechta tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ushbu qismlar o'quvchilar tomonidan tushunilishi va nazorat qilinishi kerak. Amaliy mashg'ulotlar quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

1. **Yuklama intensivligi:**

- Mashg'ulot davomida yuklamaning kuchini kuzatish.
- Yurak urish tezligini kuzatib intensivlik darajasini aniqlash.
- Mashqlarni bajarish tezligi va kuchini hisobga olish.

2. **Yuklama davomiyligi:**

○ Har bir mashqning qancha vaqt davom etishi kerakligini belgilash.

○ Mashg'ulotning umumiy davomiyligi va tanaffuslarning uzunligini rejalashtirish.

3. **Yuklama hajmi:**

- Har bir mashg'ulotda bajarilgan umumiy harakatlar sonini aniqlash.
- Takrorlash va yondashuvlar sonini hisobga olish.

4. **Yuklama turlicha bo'lishi:**

- Statik va dinamik mashqlarning nisbatini belgilash.
- Harakatli va dam olishga mo'ljallangan mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar yuqoridagi tarkibiy qismlarni o'zlashtirish orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganadilar.

6.3. Jismoniy yuklamalarni individual imkoniyatlarga moslashtirish

Jismoniy yuklamalarni individual imkoniyatlarga moslashtirish har bir o'quvchining jismoniy tayyorgarligi va sog'lig'ini inobatga olishni talab qiladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. **Boshlang'ich baholash:**

- O'quvchining boshlang'ich jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash.
- Salomatlik holatini o'rganish (masalan, tibbiy ko'rik natijalari).

2. **Yuklamalarni shaxsiylashtirish:**

○ O'quvchining kuch, chidamlilik va harakatchanlik darajasiga mos yuklamalarni belgilash.

- Individual rejalar tuzish va ularni mashg'ulotda qo'llash.

3. **Doimiy kuzatish:**

○ Mashg'ulot davomida o'quvchining holatini kuzatib, yuklamalarni moslashtirish.

○ Jismoniy faollikning organizmga ta'sirini o'rganish va kerak bo'lsa, yuklamalarni kamaytirish yoki oshirish.

4. **Qayta baholash:**

○ Har oy yoki mashg'ulotlar seriyasi oxirida o'quvchilarning natijalarini qayta baholash.

